MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	<p>Sportchilarning individual funksional xususiyatlariga asoslangan mashg'ulot yuklamalarini optimallashtirish yo'llari ..... 593  <b>Olimov Shahobiddin Maribboy o'g'li, Sulaymonova Maktuba Xusan qizi</b></p> <p>Kasbiy sifatlarini takomillashtirishda raqamli texnologiyalar foydalanish..... 597  <b>Otanazarova Mohira Xamidbekovna</b></p> <p>Biologiya fanining ta'limdagi o'rni va o'qitishdagi muammolar..... 601  <b>Pulatova Elnora Kadirovna</b></p> <p>Boshlang'ich sinf darsliklaridagi antroponimlarning funksional, leksik, semantik, morfologik tadqiqi..... 606  <b>Qarshiyeva Gulbahor Shamil qizi</b></p> <p>Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish metodik muammo sifatida . 609  <b>Raxmonova Iroda Samijonovna</b></p> <p>Professional Standards for Pre-Service Teachers..... 613  <b>Sardor Rakhmanov</b></p> <p>Ta'limni raqamlashtirish sharoitida bo'lajak texnologiya o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari ..... 619  <b>Sayidova Muxtaram Xamidullayevna</b></p> <p>Ingliz tilini o'rgatishda multimodal yondashuv asosida ta'limiy videolardan foydalanish strategiyasi ..... 623  <b>Solijonova Mohlaroyim Abdumalik qizi</b></p> <p>Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini matn ustida ishlash ko'nikmalarini shakllantirishda interfaol metodlardan foydalanish..... 628  <b>Sotiboldiyeva Shoxista Jaloliddin qizi, Shodmonqulova Sevara Rahmonqul qizi</b></p> <p>O'quv-tarbiyaviy vaziyatlarni loyihalashtirish asoslarida talabning tarbiyaviy jihatlarini takomillashtirish .. 632  <b>Temirov Ma'ruf Shuhrat o'g'li</b></p> <p>Tikuv buyumlarini konstruksiyalash va modellashtirishning avtomatlashtirilgan tizimlari fani orqali talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari..... 638  <b>Umarova Fotima Abduraximovna</b></p> <p>Bo'lajak o'qituvchilarda xalq pedagogikasi vositasida milliy xarakter xususiyatlarini shakllantirish omillari..... 641  <b>Usmonova Muattar Bahadirjonovna, Hasanboyeva Kamola Dilmurod qizi</b></p> <p>Raqamli ta'lim texnologiyalarning bugungi kunda ta'lim sohasidagi qo'llanilishi ..... 647  <b>Xamroyeva Madina Dadajonovna, Umarov Husan Lazizi o'g'li</b></p> <p>Qurilish materiallari sanoatida innovatsion klasterlarni boshqarishni takomillashtirish..... 650  <b>Xaydarova E'zoza Shukurullayevna, Li Zin Bo</b></p> <p>Geografiya ta'lim yo'nalishi talabalarini o'qitish metodikasi va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga oid tadqiqot ishlarining tahlili..... 655  <b>Xodjaniyazova Shoxsanam Ergash qizi</b></p> <p>O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umurlar" romanida inson va uning ruhiyati ..... 660  <b>Xolmatova Ro'zixon Akmaljon qizi</b></p> <p>Talabalarda liderlikni shakllantiruvchi ijtimoiy-pedagogik omillar ..... 663  <b>Xoshimova Muazzamxon Zaynalobidinovna</b></p> <p>Creative Games and Project-Based Learning in Physics Lessons ..... 666  <b>Yorqinbek Abduraimjanovich Mamatokhunov</b></p> <p>Теоретические основы и практическое применение компетентного подхода в обучении физике ..... 670  <b>Абдулхаким Хакимов</b></p> <p>Роль инклюзивной игровой деятельности в социальной адаптации детей с инвалидностью дошкольного возраста ..... 673  <b>Плиева Руслана Владимировна</b></p> <p>"Beruniy asri" yoxud Beruniyning xarizmatik qobiliyati va uning boqiy ilmiy merosi ..... 676  <b>Saifnazarov Ismoil, Sultonov Tursinboy</b></p> <p>Значение наблюдения и педагогической диагностики в инклюзивном образовании..... 682  <b>Тургунова Нилуфар Абдусаломовна</b></p> <p>Maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik dunyoqarashini shakllantirish texnologiyalari ..... 685  <b>Xaydarova Shaxlo Narzullayevna, Azimova Gulmira Xayrullayevna</b></p> <p>Диалог культур в рассказе "Келинка" галины ширяевой: гендерная и этнокультурная перспектива.. 689  <b>Чернова Татьяна Алексеевна</b></p> <p>Ijtimoiy va gumanitar fanlarning pedagogik ahamiyati: Xo'ja Vali avlodlari misolida ..... 692  <b>Umurov Sharif Rajabovich</b></p>
-------------------------------------	--



Raqamli ta'lim sharoitida talabalar mustaqil tayyorgarligini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari: didaktik yondashuvlar va ilg'or ilmiy modellarning tahlili.....	695
<b>Umarova Zaxro Abduraxim qizi</b>	
Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda innovatsion yondashuvga oid dolzarb masalalar .....	701
<b>Sharofat Juraqulova Baxtiyorovna</b>	
Bo'lajak ingliz tili mutaxassislarining sun'iy intellekt kompetensiyasi.....	704
<b>Ibragimova Hilola Bahodirjon qizi</b>	
Oliy ta'lim muassasalari talabalari orasida kurash sport turini keng rivojlantirish .....	709
<b>Ochilov Elbek Olimovich</b>	
Muhandislik grafikasi ta'limida talabalarning grafik ishlarni bajarish ko'nikmalarini rivojlantirish.....	712
<b>Ashirboyev A. O., Muxamedjanova G. J.</b>	
Futbol mashg'ulotlarida o'quvchilarda jamoaviy ruhni pedagogik usullar bilan rivojlantirish .....	715
<b>Axmedjanov Shuhrat Boltayevich</b>	
Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida nutqiy va lingvistik kompetensiyalarini shakllantirish .....	718
<b>Bamullayeva Shodiyona Nasrullo qizi</b>	
Umumiy o'rta ta'lim o'quv dasturlarining sifat va samaradorligini oshirishning nazariy hamda ilmiy asoslari .....	721
<b>Esanov Muzaffar Xoshimovich</b>	
Bo'lajak tarbiyachilarni innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash texnologiyalari .....	726
<b>Eshmuminova Dilshoda Iskandarovna</b>	
Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida pedagogik yondashuvlarning roli.....	730
<b>Jumanova Iroda Shokirjon qizi</b>	
Arab xattotlik san'atining rivojlanishi.....	733
<b>Mamarajabov Mirqosim Ramazon o'g'li</b>	
Educational Effectiveness of the Question-and-Answer Technique in Working With English Texts .....	737
<b>Muradulloyeva Sevinch Soxibjon qizi</b>	
Boshlang'ich sinf matematika va geometriya darsliklarida STEAM yondashuvi asosida o'qitishning imkoniyatlari.....	740
<b>Nazarova Shahzoda</b>	
Boshlang'ich ta'lim o'quv jarayoniga sun'iy intellektni tatbiq etishning metodik asoslari (sinfdan tashqari ishlar misolida).....	744
<b>Nigmatullayeva Matluba Izatullo qizi</b>	
Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining o'quvchilarda ijtimoiy faollikni shakllantirishdagi pedagogik imkoniyatlari .....	748
<b>Normaxmatov Ilhom Zayniddinovich</b>	
Boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishda sun'iy intellekt texnologiyalarining imkoniyatlari.....	751
<b>Qurbonov Sanjar Rajabboyevich</b>	
Sportchi salomatligini baholashda zamonaviy texnologiyalar.....	754
<b>Samandarov A. X.</b>	
Sport tashkilotlari uchun marketing, e-marketingning foydalari.....	758
<b>Samatov Javlonbek Abdukayumovich</b>	
Futbol o'yinlari orqali o'quvchilarda jismoniy tarbiya pedagogikasining ahamiyati .....	762
<b>Sattarov Qarshiboy Norqulovich</b>	
Kichik maktab yoshidagi bolalarda lingvistik kreativ intellektni shakllantirishning pedagogik shartlari .....	765
<b>Shodiyev Rizamat Davronovich, Jabborova Maftuna Komil qizi</b>	
Ota-onalar bilan samarali hamkorlikni tashkil etishda direktorning strategik yondashuvi.....	770
<b>Tog'ayeva Shahnoza Shavkatovna</b>	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa tinglash .....	774
<b>Xodjayeva Nilufar Latipovna</b>	
Talabalarda kitobxonlik madaniyatini targ'ib qilish orqali sog'lom fikrlarni shakllantirish masalasi.....	778
<b>Xudayberganova Nargisa Qurbonbayevna</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkurini rivojlantirishda interfaol metodlarning ahamiyati .....	782
<b>Xursanova Marjona Baxtiyor qizi</b>	
Sun'iy intellekt – bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilari ta'limini modernizatsiya qilish vositasi sifatida .....	785
<b>Yoqubaliyeva Dilafruz Payzidin qizi</b>	
Tibbiy pedagogika: kasbiy ta'limda sog'lom turmush tarzi shakllantirishning psixopedagogik asoslari.....	788
<b>Ziyatov Muhammad Namazovich</b>	
Интерактивное обучение в развитии личности и критического мышления студентов .....	792
<b>Рысова Галия Байбулатовна</b>	

# BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA VA GEOMETRIYA DARSLIKLARIDA STEAM YONDASHUVI ASOSIDA O'QITISHNING IMKONIYATLARI

Nazarova Shahzoda

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
Pedagogika va ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti  
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi, 2-bosqich, 10-23-guruh talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf matematika va geometriya darsliklari asosida STEAM yondashuvini qo'llashning samaradorlik jihatlari yoritilgan. Muallif integratsiyalashgan fanlar asosida o'quvchilarda analitik fikrlash, muammo yechish, ijodkorlik va texnologik savodxonlikni rivojlantirish yo'llarini tahlil qiladi. Tadqiqotda zamonaviy o'qitish metodlari asosida amaliy tavsiyalar beriladi.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich ta'lim, matematika, geometriya, STEAM yondashuvi, integratsiya, analitik fikrlash, texnologik savodxonlik, metodika.

**Abstract:** This article discusses the possibilities of using the STEAM approach in primary school mathematics and geometry lessons. The author analyzes methods of developing analytical thinking, creativity, and technological literacy in students through interdisciplinary integration. Practical suggestions based on modern teaching strategies are provided.

**Key words:** primary education, mathematics, geometry, STEAM approach, integration, analytical thinking, technological literacy, methodology.

**Аннотация:** В статье рассматриваются возможности применения STEAM-подхода на уроках математики и геометрии в начальных классах. Автор анализирует способы развития у младших школьников аналитического мышления, творческих способностей и технологической грамотности на основе межпредметной интеграции.

**Ключевые слова:** начальное образование, математика, геометрия, STEAM-подход, интеграция, аналитическое мышление, технологическая грамотность, методика.

## KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri – o'quvchilarni mustaqil fikrlovchi, muammolarga yechim topa oladigan, amaliy va nazariy bilimlarni integratsiyalab qo'llay oladigan shaxs sifatida tarbiyalashdir. Bu jarayonda STEAM yondashuvi – ya'ni fan (Science), texnologiya (Technology), muhandislik (Engineering), san'at (Art) va matematika (Mathematics) integratsiyasiga asoslangan ta'lim modeli alohida o'rin egallaydi. Ayniqsa, boshlang'ich sinfdan matematika va geometriya fanlarini STEAM yondashuvi asosida o'qitish o'quvchilarda analitik fikrlash, muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish, ijodiy yondashuv va texnologik savodxonlikni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi <sup>[1]</sup>.

Boshlang'ich ta'lim bosqichi – bu o'quvchining ilm-fanga bo'lgan qiziqishini shakllantirish, mantiqiy fikrlash va muhandislik asoslarini sezdirish uchun eng qulay davr hisoblanadi. Matematika va geometriya darslarida amaliy topshiriqlar, loyihaviy faoliyat, konstruktorlik ishlari, raqamli texnologiyalar bilan ishlash orqali nafaqat fanga qiziqish, balki hayotiy masalalarga ilmiy yondashuvni singdirish mumkin. STEAM yondashuvi o'quvchilarni faqat nazariy bilimlar bilan cheklab qo'ymaydi, balki bu bilimlarni kundalik hayotda qanday qo'llash mumkinligini ko'rsatadi. Bu esa, o'z navbatida, fanlararo bog'liqlikni anglash, tanqidiy fikrlash va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu boisdan, matematika va geometriya fanlarida STEAM asosidagi darslarni tashkil qilish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim olish motivatsiyasi, tafakkur doirasi va ijodiy salohiyatini rivojlantirish mumkin <sup>[2]</sup>.

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf matematika va geometriya darsliklarida STEAM yondashuvining qo'llanilish imkoniyatlari, samarali metod va texnologiyalar, shuningdek, sinfdan tashqari faoliyatlar orqali



erishiladigan natijalar tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – boshlang'ich ta'limda matematikani o'qitishda fanlararo integratsiyalashgan, zamonaviy, innovatsion yondashuvlarni aniqlash va amaliyotga tadbqiq etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang'ich sinfda matematika va geometriya fanlarini o'qitishda STEAM yondashuvini qo'llash masalasi so'nggi yillarda ta'lim sohasi bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlarda keng yoritilmoqda. STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) yondashuvi o'quvchilarning kompleks tafakkurini shakllantirish, fanlararo integratsiyani kuchaytirish va ijodiy hamda amaliy faoliyatni uyg'unlashtirishga xizmat qiladi <sup>[3]</sup>. Xorijiy tadqiqotlardan E. Yakman (2010) tomonidan ishlab chiqilgan STEAM pedagogik modeli o'quvchilarning shaxsiy, ijtimoiy va professional kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, u dars jarayonida texnologiya va muhandislik elementlarini matematika va san'at bilan uyg'unlashtirishga urg'u beradi. Shuningdek, J. Beers (2011) o'z tadqiqotlarida boshlang'ich bosqichdagi fanlarni integratsiyalash orqali o'quvchilarda loyihaviy fikrlash, eksperiment qilish va o'z ixtirolarini yaratish ko'nikmalari shakllanishini asoslab bergan <sup>[4]</sup>.

Mahalliy mualliflardan M. Yo'ldoshev, G. Jalilova, O. Qudratova va boshqalarning ilmiy-uslubiy ishlarida boshlang'ich sinflarda fanlararo integratsiya asosida darslar tashkil qilish, amaliy topshiriqlar va loyiha asosidagi ta'lim texnologiyalarini joriy qilishning didaktik imkoniyatlari yoritilgan. Jumladan, G. Jalilovanning "STEAM yondashuv asosida boshlang'ich sinfda matematika o'qitish metodikasi" nomli ishida o'quvchilarning matematik tafakkurini ijodiy va amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish usullari batafsil tahlil qilingan <sup>[5]</sup>.

Shuningdek, Piaget va Bruner kabi konstruktivist olimlarning nazariy qarashlari asosida yaratilgan integratsiyalashgan ta'lim modellari ham boshlang'ich ta'limga moslashgan holatda tatbiq etilmoqda. Bu nazariyalar o'quvchini bilimni tayyor holatda qabul qiluvchi emas, balki uni mustaqil izlab topuvchi va yaratadigan subyekt sifatida qaralishini ta'minlaydi. Bu, ayniqsa, STEAM yondashuvining maqsadlariga to'liq mos tushadi. Oxirgi yillarda chop etilgan o'quv qo'llanmalar va maqolalarda, xususan, "Matematika ta'limida integratsion yondashuv", "STEAM metodikasi asosida amaliy mashg'ulotlar", "Geometriyani hayotiy misollar bilan o'qitish" kabi manbalarda amaliy tajriba va metodik tavsiyalar berilgan. Bular orqali o'quvchilarning darslarga bo'lgan qiziqishini oshirish, real hayot bilan bog'lash va o'zlashtirish samaradorligini ko'tarish mumkinligi isbotlangan <sup>[6]</sup>.

Xulosa qilib aytganda, mavjud adabiyotlar boshlang'ich sinfda matematika va geometriya fanlarini o'qitishda STEAM yondashuvining nazariy asoslari, amaliy metodlari va ijobiy ta'sir doiralarini keng ko'lamda qamrab oladi. Mazkur maqolada esa bu tajribalar milliy ta'lim kontekstida baholanib, sinfdan tashqari mashg'ulotlar orqali STEAM komponentlarini samarali integratsiya qilish yo'llari yoritiladi.

## TADDIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolani tayyorlash jarayonida zamonaviy pedagogik tadqiqot metodlaridan keng foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini qiyosiy tahlil, kuzatuv, empirik ma'lumotlar yig'ish, kontent-tahlil hamda so'rovnomalar metodlari tashkil etdi. Ushbu yondashuvlar yordamida boshlang'ich sinf matematika va geometriya darsliklarida STEAM yondashuvining qo'llanilishi, uning amaliy imkoniyatlari va o'quvchilar rivojiga ta'siri chuqur tahlil qilindi.

*Birinchidan*, qiyosiy tahlil usuli orqali O'zbekiston Respublikasida amalda bo'lgan boshlang'ich sinf matematika va geometriya darsliklari, o'quv-metodik majmualar, fan dasturlari tahlil qilindi. Ular mazmun, tuzilma va metodik yondashuvlar nuqtai nazaridan solishtirilib, STEAM elementlarining mavjudligi, ularning integratsion va amaliy yo'nalishi baholandi <sup>[7]</sup>.

*Ikkinchidan*, kuzatuv metodi yordamida ayrim umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida olib borilayotgan matematika darslari monitoring qilindi. Bunda o'quvchilarning darsdagi ishtiroki, amaliy mashg'ulotlarga jalb etilishi, loyiha asosidagi topshiriqlarni bajarishdagi faolligi va ijodiy yondashuvi o'rganildi. O'qituvchilarning interfaol metodlardan, vizual va texnologik vositalardan foydalanish darajasi ham qayd etildi.

*Uchinchidan*, kontent-tahlil orqali darslik va metodik qo'llanmalarda mavjud topshiriqlar, loyihaviy faoliyatga oid mashqlar, geometriyaviy amaliy topshiriqlar tahlil qilindi. Ushbu materiallarning o'quvchilarda mantiqiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal etish, muhandislik elementlariga oid tasavvurni shakllantirishdagi salohiyati aniqlashtirildi <sup>[8]</sup>.

Bundan tashqari, so'rovnomalar metodi yordamida 60 nafar boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'rtasida ijtimoiy so'rov o'tkazildi. Unda quyidagi savollar o'rganildi: dars jarayonida STEAM komponentlaridan foydalanish darajasi; o'quvchilarda integratsiyalashgan fikrlashni rivojlantirishdagi muammolar; texnologik vositalar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishdagi yondashuvlar; matematika va san'at elementlarini uyg'unlashtirish tajribalari.

So'rovnomalar natijalari umumlashtirilib, maqolada ilmiy asoslangan tahliliy xulosalar va metodik tavsiyalar shakllantirishga xizmat qildi. Yuqoridagi metodlar asosida olingan ma'lumotlar tahlil qilinar ekan, maqolada

boshlang'ich sinf matematika va geometriya ta'limiga STEAM yondashuvini joriy qilish orqali o'quvchilarning ijodiy, analitik va muhandislik tafakkurini rivojlantirish imkoniyatlari asoslab beriladi. Shu bilan birga, milliy ta'lim kontekstiga mos keluvchi samarali metodlar ajratib ko'rsatildi.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Olib borilgan tahlil va kuzatuvlar natijasida boshlang'ich sinfda matematika va geometriya fanlarini STEAM yondashuvi asosida o'qitishda foydalanilayotgan metodik yondashuvlar, ularning amaliy imkoniyatlari va samaradorligi o'rganildi. Analitik tahlil asosida quyidagi asosiy natijalar ajratib ko'rsatildi:

Birinchidan, o'quvchilarning matematik tafakkurini rivojlantirishda ijodiy va integratsiyalashgan yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, real hayotiy vaziyatlar asosida tuzilgan muammoli topshiriqlar, jismoniy modellar yasash, geometrik shakllar bilan amaliy ishlar, loyihaviy ishlanmalar orqali o'quvchilarda nafaqat matematik, balki muhandislik, texnologik va san'atga oid ko'nikmalar ham shakllanmoqda. Bu jarayonlar orqali bolalarda tahlil qilish, yechim topish va natijani baholashga oid kompetensiyalar rivojlanadi.

Ikkinchidan, tahlil qilingan darsliklar va metodik qo'llanmalarda STEAM elementlarining mavjudligi, ayniqsa matematika va texnologiya, matematika va san'at fanlararo aloqalarining shakllantirilgani ijobiy baholandi. Misol uchun, geometrik shakllar asosida rasm chizish, simmetriya elementlari bilan dekorativ bezaklar yasash, masofalarni o'lchash va modellar topshiriqlari orqali o'quvchilar matematik bilimlarni amaliy faoliyatga tatbiq etishga o'rganmoqda.

Uchinchidan, kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich sinf darslarida STEAM yondashuvini qo'llagan o'qituvchilarning darslari ko'proq interaktiv, amaliy va ijodiy tus olgan. O'quvchilar bunday darslarda faol ishtirok etib, jamoada ishlash, muammoni hal etish, loyiha asosida fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirmoqda. Shu bilan birga, maket yasash, kodlash elementlari, oddiy texnik qurilmalar bilan tanishish kabi faoliyatlar ularning qiziqishini yanada oshirmoqda.

So'rovnoma natijalariga ko'ra, tajribali boshlang'ich sinf o'qituvchilari STEAM asosidagi topshiriqlarni o'quvchilarda ijodkorlik, mustaqil fikrlash va fanlararo muloqot salohiyatini oshirishda juda samarali deb hisoblashmoqda. Bunday yondashuv o'quvchining faqat nazariy bilim emas, balki uni amaliyotga tatbiq etish qobiliyatini ham shakllantiradi. Shuningdek, ayrim darslarda kuzatilgan muammolar qatoriga quyidagilar kiritildi: o'quvchilarni barcha STEAM komponentlariga birdek jalb etishda qiyinchiliklar, texnik vositalarning yetishmasligi hamda o'qituvchilarning ba'zida STEAM yondashuviga to'liq moslashmagan metodik tayyorgarligi. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun o'qituvchilarga STEAM bo'yicha malaka oshirish, darsliklarga fanlararo topshiriqlarni ko'proq kiritish va texnologik vositalar bilan ta'minlash zarurligi aniqlandi. Umuman olganda, tahlillar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinfda matematika va geometriya fanlarini STEAM yondashuvi asosida o'qitish orqali o'quvchilarning analitik tafakkuri, ijodiy yondashuvi, muhandislik va texnologik savodxonligi samarali shakllanadi. Ta'lim mazmuniga integratsiyalashgan va loyiha asosidagi faoliyatlarni kiritish, tizimli va bosqichma-bosqich o'rgatish modeli orqali bu natijalarga erishish mumkin.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematika va geometriya fanlarini STEAM yondashuvi asosida o'qitishda mavjud imkoniyatlar, samarali yondashuvlar va dolzarb muammolar aniqlab olindi. Quyidagi xulosalar va tavsiyalar ushbu ta'lim yo'nalishini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi: STEAM yondashuvini chuqur integratsiya qilish zarur. Matematika va geometriya darslarini nafaqat an'anaviy shaklda, balki muhandislik, texnologiya, san'at va tabiiy fanlar bilan uzviy bog'lab olib borish orqali o'quvchilarning tahliliy, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlari rivojlantiriladi. Masalan, geometrik shakllar asosida amaliy modellar yasash, kodlash elementlari bilan tanishtirish va loyihaviy faoliyatni tashkil etish ijobiy natija beradi. Amaliy mashg'ulotlarni ko'paytirish lozim.

O'quvchilar ishtirokida maket yasash, jismoniy modellar orqali masalalarni yechish, tajribalar asosida matematik formulalarni tushuntirish kabi faoliyatlar ularning fanga bo'lgan qiziqishini oshirib, bilimlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuningdek, bu jarayonlar bolalarda muhandislik fikrlashini shakllantirishga yordam beradi. O'qituvchilarning STEAM metodik tayyorgarligini kuchaytirish zarur. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun maxsus malaka oshirish kurslari va amaliy treninglar tashkil etilib, STEAM metodlari, loyiha asosidagi ta'lim, fanlararo integratsiya kabi yondashuvlar o'rgatilishi kerak. O'qituvchilarning metodik kompetensiyasi yuqori bo'lsa, darslarning sifat darajasi ham oshadi. Metodik resurslar va texnik vositalarni kengaytirish kerak. STEAM yondashuvini joriy etishda turli ko'rgazmali materiallar, raqamli texnologiyalar, interaktiv platformalar, konstruktorlar va ilovalar muhim o'rin tutadi. Shu bois darsliklar va metodik qo'llanmalarda amaliy va vizual topshiriqlar ulushini ko'paytirish tavsiya etiladi. O'quvchilarning ijodiy va muammoli fikrlashini baholash mezonlari ishlab chiqilishi lozim.



An'anaviy baholash uslublaridan tashqari, loyiha taqdimoti, jamoaviy ish natijalari, muammoni hal qilish bosqichlari va yakuniy xulosalar asosida baholash tizimini joriy etish maqsadga muvofiq. Bu orqali o'quvchining mustaqil fikr yuritish, muloqot va innovatsion yechimlar topish salohiyati ham hisobga olinadi. Umuman olganda, boshlang'ich sinf matematika va geometriya darslarida STEAM yondashuvini tizimli va bosqichma-bosqich joriy etish orqali o'quvchilarda XXI asrga mos, amaliy, fanlararo va kreativ tafakkurga asoslangan bilim va ko'nikmalarni shakllantirish mumkin. Bu esa kelajakda raqobatbardosh va ilg'or avlodni tarbiyalashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Beers, S. Z. (2011). 21st Century Skills: Preparing Students for THEIR Future. National Education Association.
2. Yakman, G. (2008). STEAM Education: An Overview of Creating a Model of Integrative Education. Virginia Polytechnic Institute and State University.
3. Daryanto, & Karim, S. (2017). Pembelajaran Tematik Terpadu: Konsep, Strategi dan Implementasinya dalam Kurikulum 2013. Gava Media.
4. Qodirova, M. (2022). Boshlang'ich sinflarda fanlararo integratsiya asosida ta'lim berishning metodik asoslari. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
5. Khamdamova, D. A. (2021). STEAM texnologiyasi asosida boshlang'ich ta'limda matematika fanini o'qitish samaradorligi. "Pedagogika va psixologiya muammolari" ilmiy-amaliy jurnali, №4.
6. Joldasova, Z. (2020). Geometriya fanini STEAM yondashuvi asosida o'qitish imkoniyatlari. "Boshlang'ich ta'lim" jurnali, №2.
7. National Research Council. (2011). Successful K–12 STEM Education: Identifying Effective Approaches in Science, Technology, Engineering, and Mathematics. The National Academies Press.
8. Shukurov, B. (2019). Boshlang'ich ta'limda loyihaviy yondashuv orqali fanlarni integratsiyalash. Toshkent: Fan nashriyoti.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №6**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.